



NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATI

Jumaniyazova Iroda

Xorazm yuridik texnikumi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi tushunchasi va uning huquqiy asoslari to'g'risida atroflicha so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *Tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik subyekti, tadbirkorlik faoliyati erkinligi, tadbirkorlik subyektlari uyushlari, "uchinchi sektor", faol tadbirkorlik faoliyati, passiv tadbirkorlik faoliyati.*

2021-yil 6-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda jamiyatimizning barcha sohalarini isloh etish, jumladan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda "Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim"⁶¹.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining o'zagi hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlari aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, inson huquqlarini himoya qilish va jamoat nazorati mexanizmlari orqali davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining shaffofligi va samaradorligiga katta hissa qo'shadi. Bunda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligi bevosita moliyaviy jihatdan mustaqilligi, moddiy-texnik bazasining ta'minlanganligi hamda ularni moliyalashtirishni izchil diversifikatsiya qilishga chambarchas bog'liq.

2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6181-son Farmoni bilan O'zbekistonda ilk bor fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra adliya organlarida ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlarning soni 9160 tashkil qilib, adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Respublika bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarning ko'p qismi sport, inson huquqlarini himoya qilish, yoshlar va tadbirkorlikni rivojlantirish sohalariga to'g'ri keladi.

Jami 9 160 ta nodavlat notijorat tashkilotning 7 171 tasi jamoat birlashmasi, 484 tasi jamoat fondi, 834 tasi muassasa va 671 tasi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda (palata, filial va b.) tashkil etilgan.

⁶¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисига Мурожаати. "Халқ сўзи". 2020 йил 21-январь.

Ko‘rinib turganidek, nodavlat notijorat tashkilotlarining aksariyat qismi jamoat birlashmasi tashkiliy-huquqiy shaklda faoliyat ko‘rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat yuritishida davlat ko‘magi asosiy o‘rinni egallaydi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlashning moliyaviy manbalari diversifikatsiya qilinishi natijasida:

- nodavlat notijorat tashkilotlarining dastur va loyihalarida band bo‘lgan fuqarolarning soni 10 000 nafardan ziyodni tashkil etmoqda;
- 2 150 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotining moliyaviy barqarorligi ta‘minlandi;
- xalqaro va xorijiy tashkilotlarga g‘oyaviy qaram bo‘lish xavfining oldi olindi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish va moliyaviy manbalarini diversifikatsiya qilishda ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra, tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati sub’ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat hisoblanishi belgilangan⁶².

Qonunchilikda nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi tushunchasiga aniq va batafsil ta‘rif berilmagan. Ular ustav maqsadlari doirasiga mos keladigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunining 2-moddasiga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir.

Mazkur moddaning 2-qismiga asosan nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Shuni ta‘kidlash lozimki, nodavlat notijorat tashkilotlar amaldagi qonunchilik doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug‘ullanish imkoniyatiga ega, ammo faqat bitta shart bilan – aynan mana shu faoliyat o‘z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda amalga oshirilishi kerak.

⁶² Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й.,03/21/683/0375-сон; 03.03.2022й., 03/22/756/0180-сон; 30.06.2022 й.,

Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy tabiati uning tushunchasi va tashkil qilinish prinsipidan kelib chiqadi. Nodavlat notijorat tashkilotlarning asosiy maqsadi ijtimoiy masalalarni qamrab olgan bo‘lib, foyda olish asosiy maqsadi hisoblanmaydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining yana bir muhim jihati ularni tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish chegarasi bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida notijorat tashkilotlari faoliyati maqsadlarining to‘liq ro‘yxati bo‘lmasa ham, bu qator holatlarda notijorat sektori tashkilotlarining tegishli tashkiliy-huquqiy shakllari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari normalari, shuningdek NNT ta‘sis hujjatlarida ko‘rsatilgan faoliyatining aniq maqsadlari bilan belgilab beriladi.

Bunday holat tashkilot maqsadlarini faqat NNT ishtirokchilarining o‘zlari tomonidagina emas, shuningdek, ro‘yxatga oluvchi organlar tomonidan ham erkin talqin etishga olib kelishi mumkinligini ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Yevropa qonunchiligida notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishi masalasi turlicha hal qilinadi. Ayrim davlatlarda (masalan, Fransiyada) notijorat tashkilotlariga tadbirkorlik faoliyatini cheklanmagan miqdorda amalga oshirish imkoniyati beriladi, boshqa mamlakatlarda (Germaniya) tadbirkorlik faoliyatini cheklangan miqdorda amalga oshirish huquqi berilgan, qator davlatlarda (Buyuk Britaniya) esa faoliyatining asosiy turi sifatida ijtimoiy foydali maqsadni ko‘zlagan tashkilot tushunchasi umuman yo‘q.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasiga asosan nodavlat notijorat tashkilotlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turini o‘z ustavlarida belgilangan maqsadlari doirasida amalga oshirishi mumkin.


Shuningdek, “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasiga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq o‘z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Shu bilan birga, Qonunning 29-moddasida nodavlat notijorat tashkilotining mol-mulkini shakllantirish manbalariga tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat ustav maqsadlari uchun ishlatiladigan daromadlar kirishi belgilangan.

Bundan tashqari, Qonunning 7-moddasiga asosan nodavlat notijorat tashkilotlar ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Bundan ko‘rinadiki, nodavlat notijorat tashkilotlar qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turini o‘z ustavlarida belgilangan maqsadlari doirasida amalga oshirishi hamda qonun hujjatlariga muvofiq o‘z ustav maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyatining cheklangan sub‘ekti sifatida qatnashishlari tushunchasi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmaganligi bilan tavsiflanadi.



Nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish birinchi navbatda moddiy boylik orttirish maqsadida emas, balki ushbu tashkilotlarning ustav maqsadlarini samarali amalga oshirishga qaratilishi lozim. Mazkur fikrga T.V. Gordeyeva ham qo'shilib, mazkur tashkilotlarning asosiy maqsadi birinchi navbatda, tashkilot maqsadlariga erishish, ya'ni uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tashkilot maqsadlarida foydalaniladigan mulkni shakllantirish manbai bo'lib xizmat qilishi, tashkilotning ijtimoiy foydali maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo'shishi" bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi⁶³.

Fikrimizcha, tadbirkorlik sub'ektlari uyushmalari yuridik shaxslar uyushmalari sifatida nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. Mazkur institut "uchinchi sektor" imtiyoz va imkoniyatlaridan to'liq foydalanishiga oid yagona yondashuvni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyatini faol va passiv bo'ladi: faol toifaga tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotish, shu jumladan, biznes- kompaniyalar tomonidan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlaridan foyda olish kiradi. Passiv tadbirkorlik faoliyati depozit hisobvaraqlariga mablag'larni joylashtirishdan, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlardan foyda olishni o'z ichiga oladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga turli mutaxassislar turlicha fikr bildirishadi. Ayrim olimlar mazkur tashkilotlarning tadbirkorlik sub'ektlariga ta'sischi bo'lishi mazkur sohada manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishini ta'kidlashadi. Boshqa mutaxassislar, tadbirkorlik sub'ektlari uyushmalari hisoblangan NNT tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi keyinchalik raqobat va monopoliyaga oid qonunchilik buzilishi mumkin degan fikrni bildirishadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik sub'ekti va nodavlat notijorat tashkilotining tadbirkorlik faoliyatini quyidagi asoslarga ko'ra ajratish mumkin:

*Birinchi*dan, tijorat tashkilotlaridan farqli o'laroq, nodavlat notijorat tashkilotlari foyda olishni asosiy maqsad qilib qo'ymaydi va olingan foydani faqatgina ustav maqsadlari yo'lida sarflaydi.

*Ikkinchi*dan, tadbirkorlik – erkin, tashabbuskor faoliyat hisoblanib, tadbirkorlik sub'ektlaridan farqli ravishda nodavlat notijorat tashkilotlari bunday tanlov erkinligiga ega emas.

*Uchinchi*dan, nodavlat notijorat tashkilotlari pullik faoliyatdan olingan daromad (foйда)ni uning ishtirokchilari (a'zolari) orasida taqsimlashga haqli emas va ulardan faqat tashkilotning ustav maqsadlarini bajarish uchun foydalanishi mumkin.

⁶³ Гордеева Т.В. Ограничение права на осуществление предпринимательской деятельности некоммерческих организаций. URL: <https://to40.minjust.ru/ru/node/212376>.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to ‘g‘risida”gi Qonun//Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 07.02.2024-y., 03/24/905/0106-son)
3. Ўзбекистон Республикасининг «Сиёсий партиялар тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2-сон, 36-модда.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Жамоат жамғармалари тўғрисида»ги Қонуни.//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2003, № 9-10 (1329-1330)
5. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й.,03/21/683/0375-сон; 03.03.2022й., 03/22/756/0180-сон; 30.06.2022 й.
6. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi// Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.06.2019 й., 03/19/544/3337-сон
7. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi ORQ-474-son Qonuni // Elektron manba: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2018-y., 03/18/474/1062-son.